

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi
xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish instituti**



I. Xolmurodov, S.Musayeva

Diktantlar to'plami
(O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma)



“Qoraqalpog'iston”

Tuzuvchilar: Ikrom Xolmurodov, Sapargul Musayeva

**Ma'sul muharrir: E. Xo'janiyozov- NDPI dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi.**

**Taqrizchilar: A. Tilegenov- O'PFITI direktori , pedagogika fanlari
nomzodi.**

**Sh. Saparniyozova- Nukus shahar 3- sonli umumta'lim
maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi.**

Ushbu “Diktantlar to'plami” metodik qo'llanmani umumta'lim maktablarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan o'zbek tili fani o'qituvchilariga mo'ljallangan bo'lib, ular o'z ish faoliyatida o'quvchilardan diktant ishi olish uchun metodik yordam sifatida tavsiya qilishni lozim topdik.

Qoraqalpog'ston Respublikasi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy Kengashining 2016-yil, 30- iyundagi ____3____ sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Tabarruk otam Otamurodov Xolmurodning porloq xotirasiga bag'ishlayman

So`z boshi

Ushbu “Diktantlar to`plami” umumta’lim maktablarining ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan o`zbek tili fani o`qituvchilari uchun mo`ljallangan. Asosan, metodik qo`llanmada ta’limiy va nazorat diktantlar uchun ko`proq matnlar berilgan. To`plamdagi matnlar o`quvchilarning umumiy saviyasi, ularning savodxonligini oshirish, o`zbek tiliga oid bilim, ko`nikma, malakalarini rivojlantirish, fikrlash qobiliyatini va nutq madaniyatini o`stirishga qaratilgan. O`z navbatida to`plamni tayyorlashda uning g`oyaviy mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati, o`quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasi hisobga olindi.

Matnlarni tanlashda ularning sodda va murakkabligi jihatdan bir-biridan farq qiladi. Chunki, matnlarni tanlashda ham muayyan sinf o`quvchilari imkoniyatlaridan kelib chiqildi. Shuningdek, matnlarni tanlashda o`quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda DTS talablari, sinflar kesimida rejalashtirilgan o`quv dasturlari, o`quv darsliklari, o`quv-metodik adabiyotlarga e’tibor qaratildi. Chunki, ta’lim boshqa tillarida olib boriladigan maktablarimizda o`zbek tili fani uchun bironta ham “Diktantlar to`plami” nashr etilmagan edi. Shuning uchun ham mavzularni tanlashda bir-biriga yaqin, o`xshash, darsliklardagi mavjud mavzularga oid matnlarni tanlab olishga harakat qilindi. Bularning barchasi o`quvchilar va o`qituvchilar uchun qulay bo`lishini nazarda tutdik.

Diktant va uning turlari

Umumta'lim maktablarining ta'lim boshqa tillarida olib boriladigan (qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, turkman va rus tillari) o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirishda, yozma nutqning savodli va to'g'ri bo'lishida diktantlarning ahamiyati katta. O'quvchining eshitib idrok qilingan so'z, gap, matnni yoshi diktant hisoblanib, o'quvchi diktant yozayotganda xato qilmaslik uchun imlo va finish belgilarining ishlatilishiga doir qoidalarga amal qilishga harakat qilindi.

Darhaqiqat, diktant vazifasiga ko'ra asosan ikki turga ajratiladi.

1. Ta'limiy diktant. 2. Nazorat diktant.

Ta'limiy diktant:

Ta'limiy diktantlar o'rganilayotgan mavzu yuzasidan har bir darsning 5-10 daqiqasi davomida va ba'zan to'liq dars jarayonida o'zlashtirilgan bilimni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'limiy diktant o'tkazilish va bajarilish usullariga ko'ra bir necha turga ajratiladi: ta'kidiy diktant, saylanma diktant, erkin diktant, lug'at diktant, rasmlil diktant, ijodiy diktant, izohli diktant kabi turlariga.

Nazorat diktant:

Nazorat diktanti o'quvchilarning yaqinda yoki ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan bilimlarni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Nazorat diktantlar asosan har chorak oxirida, ba'zan bilimlar o'rganilgandan so'ng ham o'tkazilib turiladi. Nazorat diktanti shunisi bilan muhimki, o'quvchilarning diktant yozish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolari chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan nazorat diktantning ta'limiy ahamiyati katta.

O'zbek tili ta'limining maqsad va vazifalari

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da respublikadagi umumta'lim maktablarida o'zbek tilini ikkinchi til (davlat tili) sifatida o'qitishni yanada takomillashtirish ko'zda tutilgan.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili o'quv faniga tatbiqan davlat ta'lim standarti kundalik turmush vaziyatlarida tug'iladigan muloqot uchun zarur va yetarli, kelgusidagi kasbiy faoliyati taqozo etuvchi til bilimi va nutq ko'nikmalari shakllanadigan jarayondir.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarida o'zbek tili va adabiyotini o'qitish ijtimoiy fanlar ichida muhim o'rin tutadi. Boshqa millat vakillarining davlat tilini puxta egallashlari, milliy madaniy qadriyatlarni o'rganish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari taqozo etiladi. O'zbekistonda yashab, o'qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo'lib, barcha sohalarda erkin fikr almashish uchun o'zbek tilini yetarli darajada egallashlari ko'zda tutilgan.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarda o'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarning o'zbek tilidagi so'zlarning to'g'ri yozilishi, grammatik vositalarning so'zlarga qo'shilishi bilan bog'liq imlo qoidalarini bilishlari va ushbu qoidalarga amal qilishlari zarurligi ko'zda tutilgan. Shuning bilan bir qatorda o'zbek tilidagi so'zlarda qo'llaniladigan tinish belgilarini o'tilgan materiallar doirasida to'g'ri qo'llay olishlari zarurligi hisobga olingan.

5-9-sinf o'quvchilari uchun Davlat ta'lim standartlarida diktant yozishlari uchun quyidagicha talablar belgilangan:

- V-sinflar uchun 50-55 ta so'zli matn asosida diktant;
- VI-sinflar uchun 60-65 ta so'zli matn asosida diktant;
- VII-sinflar uchun 60-70 ta so'zli matn asosida diktant;
- VIII-sinlar uchun 70-80 ta so'zli matn asosida diktant;

IX-sinflar uchun 80-90 ta so'zli matn asosida diktant yozishlari zaruriy qilib belgilab qo'yilgan.

5-SINF UCHUN DIKTANT MATNI

Qadimiy shahar

Toshkent – juda qadimiy shahar. Bu shahardan savdo karvonlari o'tgan. Shaharliklar savdogarlarni muhtasham saroylarda kutib olishgan. O'zaro savdo-sotiq rivojlangan. Bora-bora shahar savdo markaziga aylangan. Shaharning shuhrati ortgan. Hozir Toshkent sanoati, iqtisodiyoti va madaniyati rivojlangan yirik va ko'rkam shaharlardan biridir. Poytaxtimiz ko'chalari yildan-yilga ko'rkamlashib bormoqda. Ayniqsa, hashamatli binolar, chiroyli favvoralar shaxrimizning husniga-husn qo'shmoqda. **(55 ta so'z).**

Yalpiz

Yalpiz nam yerlarda, ariq bo'ylarida, tog' etaklarida, adirlarda o'sadi. U ko'p yillik o'simlik hisoblanadi. Iyun – avgust oylarida ochiladigan gullari o'zida halqasimon to'p gulni tashkil etadi. Mevasi tuxumsimon silliq, yong'oqchalarga o'xshaydi. O'simlik gullashdan oldin yoki gullaganda yer ustki qismidan o'rib olinadi va soya yerda quritiladi. Yalpiz tarkibida efir moyi va boshqa bir nechta foydali moddalar uchraydi.

(55 ta so'z).

Xotira – muqaddas

Toshkentdagi Xotira maydonida Motamsaro ona haykali o'rnatilgan. Yodgorlik majmuasida xotira lavhalari bor. Ularga ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan yurtdoshlarimizning nomlari yozilgan.

Toshkentning Yunusobod tumanida Shahidlar xotirasi xiyoboni barpo etilgan. Xiyobonda muzey ham bor. Muzey avlodlarga qatag'on yillari qurboni bo'lgan ajdodlar haqida hikoya qiladi. Xotira farzandlarda insoniylik xislatlarini tarbiyalaydi. Ajdodlarni eslash, xotirlash biz uchun muqaddas burch.

(55 ta so'z).

Lug'at diktant

Olma, behi, anor, anjir, olcha, gilos, bodring, sabzi, lavlagi, piyoz, sarimsoqpiyoz, turp, sholg'om, qovoq, qalampir, karam. Kartoshka, uzum, shaftoli, qarili, qulpnay, limon, bodom, burch.

Nukus

Nukus- Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti, Respublika hududining markaziy qismida, Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan.

Nukus shahri o'rnida 19- asrning 60-yillari Nukus ovuli mavjud bo'lgan. 1870- yillarda Nukusda savdo-sotiq, hunarmandchilik, baliq ovlash birmuncha rivojlandi.

Nukus O'zbekistonning yosh va ko'rkam shaharlaridan biri bo'lib hisoblanadi. **(43 ta so'z, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" dan).**

Tanlov

Bir qishloqda butun olamga dong'i ketgan donishmand yasharkan. Aka-uka uning yoniga kelib, shogirdlikka olishni so'rashibdi. Qariya faqat bir kishini olib qolishini aytibdi va o'spirinlarni sinamoqchi bo'libdi.

Mo'ysafid aka-ukalarning har biriga bittadan topishiriq beribdi. Ular esa, o'z navbatida, o'z topshiriqlarini sidqidildan bajarishga kirishibdilar. **(44 ta so'z).**

Lug'at diktant

Yer, yeng, yelim, yog', yog'och, yomon, daryo, yordam, tuyoq, tayoq, isyon, buyurtma, yurt, yuk, yulduz, yumshoq, sayohat, sayyoh, sarmoya, yashik, yaproq, yaktak, yaxmalak, yosh, yetim, yasha, buyuk, yuz, yaxna, yashil, yalla, yakun, Yaxyo, hadya, yolg'iz, yomg'ir, yelka, yodgor, yoz, yur, yaqin, yoqut, yopiq, yangi, yayra, yubor, yoqimli.

Oshpaz tabib

Bir kishi o'g'lining tabib bo'lishini orzu qilib, ilm olishi uchun bir olimga beribdi. Oradan bir yil o'tgach, xabar olgani borib qarasa, o'g'li o'choq boshida ovqat pishirib yurgan emish. Darsdan bo'sh paytda ustozining xizmatini qilayotgan bo'lsa kerak, deb indamay qaytibdi. Keyingi yil borsa, yana xuddi avvalgi holatni ko'ribdi.

(47 ta so'z, "Tarbiya kitobi" dan).

O'zbekiston Milliy universiteti

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti respublikamizdagi eng yirik bilim maskanlaridan biridir. Uning 16 fakultetida turli xil mutaxassislar tayyorlanadi. Bu universitetni bitirgan

tilshunos, adabiyotshunos, tarixchi, tabiatshunos, o'lkashunos mutaxassislar maktab o'qituvchilari safiga qo'shilmoqdalar.

Universitetda o'qigan iqtisodchi, huquqshunos, kimyogar va boshqa soha mutaxassislari xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida xizmat qilmoqdalar. (47 ta so'z).

Oilamiz

Bizning oilamiz yetti kishidan iborat. Ularning hammasi turli kasb egalari. Otam- shifokor, u shahar shifoxonasida ishlaydi.

Onam adabiyotshunos, u Milliy universitetda katta o'qituvchi bo'lib ishlaydi.

Akam talaba, u Texnika universitetida o'qiydi. Nazira opam bog'chada tarbiyachi bo'lib ishlaydi. Opam bolalarga o'zbek va rus tillarini o'rgatadi. Bobom bog'bon, buvim tikuvchi bo'lgan. Men 6-sinfda o'qiyman. (53 ta so'z).

Lug'at diktant

Katta- kichik, uzun- qisqa, baland –past, yaxshi- yomon, oq-qora, achchiq- chuchuk, yosh- qari, chiroyli-xunuk, kecha-kunduz, oldi-berdi,

Rivoyat

Luqmoni Hakimdan so'radilar:

- Hazrat, bu davrda Sizchalik dono va bilimdon kishi yo'q. Shuncha bilimni kimdan o'rgandingiz?

Luqmoni Hakim aytdi:

-Menga johil va nadon kishilar ilm o'rgatgan. Nodon va bilimsiz odamlar qanday yomon va noto'g'ri ish qilsalar, men aksini qildim, o'zimni yomonlikdan saqladim. (42 ta so'z).

Atirgul

Oqiljonning dadasi kuzda hovliga ikki tup atirgul olib kelib o'tqazgan edi. Kuni kecha hovlida o'ynab yurgan Oqiljon ikkala gul ko'chatni barg ochganini bittasi kichginagina g'uncha tukkanini ko'rib qoldi. Suyunib ketdi. Shundan keyin har kuni ertalab turib, yugurganicha gulning oldiga boradigan, g'uncha katta bo'layotganmikin deb qaraydigan bo'ldi. (46 ta so'z).

Qoplon

Quyosh ufqqa bosh qo'ydi. Tog'lar qip-qizil nur bilan qoplandi. Muallaq turgan parcha-parcha bulutlar cho'g'dek bo'lib ko'zni qamashtiradi.

Kaftdek tekislik bag'rida ko'rinayotgan qo'ra tomon suruv yaqinlasha boshladi. Cho'pon suv ichib bo'lgan qo'ylarni qo'raga qamadi, eshigini mahkamladi, oyog'iga o'ralashgan iti Qoplonni erkaladi, muzdekkina suvga yuz-qo'lini yuvdi. Belbog'ini yechib, artindi. **(50 ta so'z).**

Har narsadan aziz

Olam gultoji hisoblanmish inson uchun tabiat bitmas-tuganmas ne'matlar ato etgan. Bug'doy- shu ne'matlarning bittasi, xolos. Oltinday sarg'ayib yetilgan, hududsiz maydonlarda mavjlanib yotgan bug'doyzorlar ming yillardan buyon odamzot rizqining manbai hisoblanib kelgan.

Bug'doyning inson hayotidagi ahamiyati haqiqatan beqiyos. Hozirgina tegirmonda tortilgan undan yopilgan yangi nonning bo'yiyu ta'mini tasavvur etib ko'ring. **(50 ta so'z).**

Xalqimiz yo'li

O'zbekiston xalqi kelajakka ishonch bilan qaraydi. U eng avvalo o'z kuchlariga, o'zining boy tarixiy, iqtisodiy resurslariga ishonadi, sihat-salomatlik, baxt-saodat, boylik va madaniyatga o'z yo'li bilan keladi. Ulug' kelajak-oldinda. Va u bizning- O'zbekiston fuqarolarining baxt-saodati yo'lida olib borayotgan mushtarak ishimizga kuch-quvvat, g'ayrat baxsh etadi. **(48 ta so'z, "O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish" kitobidan).**

Topishmoqlar

1. Biznikida bir kishi,
Og'zida qirqta tishi.
2. Bir barmoqcha bo'yi bor,
Qizil baxmal to'ni bor.
3. Bir bo'yning o'n qo'yi bor,
Biri bog'liq, to'qqizi yechiq.
4. Bir kosa anor,

Hadding bo'lsa barin ol.
5. Bir kosada ikki ovqat.
6. Katta kichik besh o'rtoq,
To'plansa bo'lar to'qmoq.
7. Qirq xujrada qizil qizlar.
8. To'rt oyoqli, temir tuyoqli.
9. Soyada yotar,
Ming qo'yni boqar.
10. Ikki botir qilichlashar.
11. Qirq ko'ylagi bor,
Bir tugmasi yo'q.
12. Bir kulrang buzog'im bor,
Uyda gilar undan bezor.
Bozorga olib borsam,
Topilmaydi xaridor.
13. Bir eshagim bor:
To'rt oyoqli,
To'balasam ham yurmaydi.
14. Bir kosa so'k,
Ertalab qarasam yo'q.
15. Bir ola chilbirim bor,
U tog'dan bu toqqa yetadi.
16. Bir tug'ishgan ikki do'st,
Bo'ylari tizdan,
Qolmaydi bizdan,
Saqlar qor-muzdan.
17. Ikki tog'ning orasida bir tup yong'oq.
18. Bir teshikda hamma olam.
19. Bir uyning ichida to'rt ko'rpacha yoyig'liq turibdi,
Eshigi ham yo'q, teshigi ham yo'q,
Mehmon kelsa ochiladi.
20. Og'ilda besh barmoq,
Ishi xas-cho'p to'plamoq.
21. Ming qo'yimni bir chiviq bilan haydadim.
22. Mingta qo'yim sig'adi,
Bir bog' bedam sig'maydi.
23. Ikki toboq,
Orasida qashqaldoq.
24. Bo'yi bir qarich,

Soqoli ikki qarich.
25.O`zi bitta,
Tuxumi to`rtta.
26.Qo`sha ayg`ir haydadim tekis yo`lga,
Ikkoviga o`n odam xizmat qilar zo`rg`a-zo`rg`a.
27.Ustida ikki darcha,
O`rtasida bir kunda.
28.El olmasa, ellik yil yotadi.
29.Ikki og`ayni yashaydi,
Bir-birini ko`rmaydi.
30.Past-pastgina bo`yi bor,
Yetti qavat to`ni bor.
31.Ikki yaproq bir tanda,
Kezar yozda chamanda.
32.O`zi bitta, qulog`i to`rtta.
33.Minglab ignani ko`rdim,
Teshigi yo`q birida.
34.O`zi bitta, ko`zi mingta.
35.Otasi bor, onasi bor,
O`n ikkita bolasi bor.

Javoblari

1.taroq. 2.qalampir. 3. Uruk. 4. olov, cho`g`. 5. tuxum.
6.barmoqlar. 7.anor. 8.ot. 9.it. 10.qaychi. 11.piyoz. 12.sichqon.
13.sandiq. 14.yulduz. 15.ko`z. 16. etik. 17.bodom. 18.quloq. 19.qovun.
20.panshaxa. 21.ustara. 22.chumoli uyasi. 23.toshbaqa. 24.makkajo`xori.
25.do`ppi. 26.dutor. 27.burun. 28.oltin. 29.ko`z. 30.piyoz. 31.kapalak.
32.qozon. 33.tipratikan. 34.angishvona. 35.narvon.

6-SINF UCHUN DIKTANT MATNI

Obod o'lka

Bizning Vatanimiz — O'zbekiston Respublikasi. Vatanimiz tinch va farovon o'lka. Diyorimizda juda ko'p millatlar ahil va inoq yashaydilar. Respublikamizda shahar va qishloqlar juda ko'p. O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahridir. Mustaqillikdan so'ng Toshkent yanada go'zal va obod shaharga aylandi. Barcha shahar va qishloqlarimizda bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Juda ko'p yangi turar-joy binolari, litsey va kollejlari qurilmoqda. Keng ko'chalar, ko'priklar, sport majmualari barpo etilmoqda. Vatanimiz yanada obod bo'lmoqda.

(65 ta so'z)

Bilim — xazina

Bizning oilamizda turli kasb egalari bor. Dadam quruvchilik sohasida ishlaydilar. Onam esa zardo'zlik bilan shug'ullanadilar. Katta akam duradgorlik kasbini tanlagan. Opam o'qituvchilik kasbiga o'qiyaptilar. Meni esa tarjimonlik sohasi qiziqtiradi. Bobom bizga hamisha: «Sizlarning yoshlik davringiz juda ham baxtli zamonga to'g'ri keldi. Bilim va hunar — chinakam xazina. Qaysi kasbda bo'lsangiz ham o'z kasbingizning ustasi bo'ling. Shunda hech qachon kam bo'lmaysiz, bolalarim», — deb uqtiradilar.

(62 ta so'z).

Mehnatning tagi rohat

Mehnat inson hayotini bezaydi. Uni elga tanitadi. Obro'-e'tiborini oshiradi. Mehnat qilgan odamning vaqti bekor ketmaydi. Maqsadiga erishadi. Bitirgan ishi bilan quvonadi.

O'quvchi uchun asosiy mehnat o'qishdir. O'qish uchun sabr-toqat, iroda kerak. Mehnatga yoshlikdan o'rganish kerak. Darslarni diqqat bilan tinglash, uy vazifalarini vaqtida bajarish ham mehnat hisoblanadi. Diqqat bilan qilingan ishning oqibati yaxshi bo'ladi. Shuning uchun, qunt bilan ishlashga odatlaning.

(61 ta so'z).

Madaniyat haqida

Madaniyat- inson qiyofasi. U yurib- turishi, o'zini tutishi, muomalasi, o'zgalarga nisbatan munosabati orqali nechog'li madaniyatga ega yohud ega emasligini namoyon etadi. Madaniyatli kishi tarbiya ko'rgan, odob ko'chasidan o'tib, axloq yo'liga kirgan, intizom mevasidan yeb, tartib qasri orqali chin insoniylik saltanatiga kirgan shaxsdir. Madaniyatli kishi odob-axloq qoidalariga hamisha rioya etib, jamiyatda peshqadam va tashabbuskor insondir.

(55 ta so'z, "Nursafardiyya- tafakkur tarbiyasi" kitobidan).

Saxiylik haqida

Saxiylik ko'ngil duri, caxovatning sururidir. Saxiylik saltanatida o'zligini topgan insonning yuzida nur, qalbida g'urur bo'ladi. Insonparvarlikni qadrlagan shaxs iymon yo'lidagi komil insondir. U insonlarga hamisha saxiylik qiladi. Saxiylik ko'ngildan chiqarib o'zgalarga ham moddiy, ham ma'naviy ko'mak berishlikdir.

Ozga qanoat, hamisha ko'zi to'qlik, minnat qilmaslik- saxiy kishi saxovat qilib, uni unutish, maqtanmaslik.

Saxiylikning savobi ulug'dir.

(53 ta so'z, "Nursafardiyya- tafakkur tarbiyasi" kitobidan).

Fazilat

Fazilat ko'ngil go'zalligidir. Uning asosini odob, axloq, tarbiya, intizom tashkil etadi. Ushbu qoidalar ko'ngilga jo etilsa, go'zal fazilatlar tug'iladi. Kishi faqat yaxshilik haqida o'ylaydi.. Mehr-oqibat, adolat va haqiqatga intiladi. Fazilatga ega bo'lmoq usuli: oqibatli bo'lmoq, odobni yuksaltirish, axloqni o'zlashtirish, tarbiya ko'rganlik, intizomga rioya etmoqlikdir.

Go'zal fazilatlar- qalb ko'zgusi. Qalbingizni go'zallashtiring. Alloh yordam bersin.

(54 ta so'z, "Nursafardiyya- tafakkur tarbiyasi" kitobidan).

Adolat haqida

Adolatning asli haqiqatparvarlikdir. Zero, haqiqat istovchilar adolat uchun kurashadilar. Adolatning dushmani nohaqlik, tuhmat, g'arazgo'ylik, hasad va jaholatdir. Adolatli kishining qalbi pok, iymoni but bo'ladi. Adolatli bo'lmoq odatlari: iymonli bo'lmoq, mard va jasurlik, jaholatga qarshi mardona kurash, haqiqatparvarlik va oila, mahalla, yurt, vatan sha'nini himoya qilmoqlikdir.

Iymonli bo'lmoq- halol va poklik ila Haq nomidan kurashmoq, mard va jasurlik- xalq yo'lida jonfidollikdir.

(60 ta so'z, "Nursafardiyya- tafakkur tarbiyasi" kitobidan).

Lug`at diktant

Shohruh, hol, holva, hayajon, hakim, Habiba, muhtoj, haqiqat, ahvol, hayot, harbiy, Hirot, hovli, hurmat, handalak, alohida, fahm, suhbat, hikoya, mahbuba, Hamid, Marhamat, Haydar, Hikmat, mehr, Qahramon, dehqon, mehnat, husayn, Muhammad, lahza, havo, Behzod, hur, hunar, Vahob, Hanifa, hujra, jihoz, shahar, bahor, gavhar, hayqiriq, halol, halqa, imtihon, hashar, hovuz, hordiq, haykal, hosil, hukumat, guruh, alohida, Olloh, hikmat. (**56 ta so`z, “O`zbek tilining imlo lug`ati” kitobidan).**

Kamalakda nechta rang bor?

Yomg`irdan so`ng osmonda kamalak ko`rinadi, lekin unda nechta rang borligini hamma aniq bilmaydi. Kamalakda yetti rang bor. Ular qizil, sariq, yashil, pushti, binafsha, och zangori, nim pushti.

Kamalak juda chiroyli manzara hosil qiladi. Kamalak osmonda uzoq vaqt saqlanmay, tezda ko`zdan g`oyib bo`ladi.

Bolalar, kamalakni kuzating. Kayfiyatingiz chog` bo`ladi. Kamalakni rasmda ifodalang. Unga mos rang tanlang. (**55 ta so`z**).

Ko`klam

Tog` etaklarida ko`m-ko`k maysalar uzra nafis gullar, turli hushbo`y giyohlarning hidlari anqiydi. Daraxtlar siyrak, onda-sonda pakana daraxtlar uchrab qoladi. Otlar balandlik, tepalikka intilib, oyoqlarini g`urur bilan chiroyli tashlaydi, boshlarini ko`rkam tutadi. Shu sayrdan, tabiatning go`zalligidan baxra olgan bu aqlli jonivorlarning tiniq ko`zlarida hushnudlik ifodasini ko`raman. Naqadar go`zal jonivor bular. Sevaman, ko`ngildan, chindan sevaman otlarni!

(Oybek , 55 ta so`z).

Istiqlol

Vatan, istiqlol, ma`naviyat... Bu so`zlar inson ongidagi eng buyuk tushunchalarni ifodalovchi so`zlardir. Agar insonda shu so`zlarning birontasi yo`q bo`lsa, hayotining qayeridir kemptik bo`lib turaveradi. O`zbekning mungli ko`zlariga shodlik, qadoq qo`llariga qut-baraka,

bezovta qalbiga orom, osmoniga tinchlik ulashgan shu soʻzlar, eng avvalo, Istiqlol emasmi?! Istiqlol tufayli uning egik boshi baland koʻtarildi, magʻrur ovozi olam uzra jaranglay boshladi.

(57 ta soʻz).

Lugʻat diktant

Shox, xabar, xush, xudo, Xolmurod, Xoljon, baxt, Baxtiyor, taxminan, Xitoy, Xonqa, xon, xona, Xusayn, xushboʻy, xoʻja, Xoʻjand, Xiva, xushmanzara, xato, xizmat, xat, arxitektura, toʻxta, xil, xodim, xalq, paxta, xayriyat, rux, ruxsat, xislat, zaxira, xotira, xushmuomala, xulosa, xasta, xamir, daraxt, ixtiro, xizmat, xayr, tarix, taxta, Xakimbek, xolis, xato, xafa, xullas, Xorazm, xilxona, xursand, xoʻjalik, xaridor. **(54 ta soʻz “Oʻzbek tilining imlo lugʻati” kitobidan).**

Xalqimiz timsoliga aylangan shoir

Alisher Navoiy oʻzbek xalqining ulugʻ shoiri va mutafakkiri boʻlib, u oʻzbek adabiyotini, ayni zamonda, jahon adabiyotini ajoyib durdonalar, oʻlmas badiiy obrazlar bilan boyitdi. Shoir oʻz ijodiy faoliyati bilan XV asr oʻzbek adabiyotini mislsiz taraqqiyot choʻqqilariga koʻtarib, uygʻonish davri deb atalayotgan bu davr madaniy va adabiy hayotida burilish yasadi. Zoʻr mahorat bilan insonparvarlik, xalqparvarlik gʻoyalarini ilgari surib, xalqimizning nomini jahonga yoydi.

(60 ta soʻz).

Bogʻi Boburiy

Falakning gardishi bilan mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib, u yerning sultoni boʻlibdi. Hindiston bogʻ-rogʻi, koʻp meva-chevaga boy yurt ekan. Boburshoh mendan yodgor qolsin deb, Hindistonning koʻrkam joyiga bir bogʻ barpo ettiribdi. Dunyodagi bu eng katta bogʻga turli yurtlardan nihollar, gullar olib kelib koʻkartiribdi. Xalq dunyoga dongʻi ketgan bu bogʻga “Bogʻi Boburiy” deb nom qoʻyibdi. **(56 ta soʻz).**

Non hurmati

Mirzo Ulug'bek mulozimlari bilan ketayotganida yo'l yoqasida yotgan bir burda nonni ko'rib qolibdi va darrov otdan tushib, uni qo'yniga solibdi. Mulozimlaridan biri:

-Sultonim nega bizga buyurmay, o'zingiz otdan tushdingiz? – deb so'raganida, shunday javob beribdi:

-Nonni birinchi bo'lib men ko'rdim. Shunday ekan, uni yerdan olishni boshqa birovga buyirish mening nonga nisbatan hurmatsizligim bo'lar edi. Nonning ulug'ligi oldida mening podsholigim nima bo'libdi? **(60 ta so'z).**

Suv –ob-hayot

Suv –hayot manbayi. Inson uchun eng aziz tabiiy ne'mat. Obi hayotdan oqilona foydalanish lozim. Suvni musaffo saqlash kerak. Shunda inson salomatligi ham yaxshi bo'ladi.

Suvni isrof qilmaslik har bir insonning burchi. Atrofimiz go'zalligi, noz-ne'matlarning serob bo'lishi ham suvga bog'liq. Keyingi paytlarda suvga e'tibor susaydi. Ariqlardan toza suv oqmay qo'ydi. Chunki ariqlarga iflos narsalarni tashlaydilar. Bu ish esa katta gunoh. **(59 ta so'z).**

Shahrimiz chiroyi

Toshkentni “Sharq darvozasi” deb bejiz atamaydilar, chunki Markaziy Osiyoga kelgan chet ellik mehmonlar ilk bor shu shaharda kutib olinadi.

Istiqlol yillari Toshkentning chiroyiga chiroy qo'shildi, bu qadimiy shahar yashardi, go'zallashdi. Shahardagi avtomobil yo'llari ta'mirlandi, keng shohko'chalar ochildi, ulkan ko'priklar, sport majmualari, qator ma'muriy va turarjoy binolari qurildi, bog'-rog'lar, ko'm-ko'k xiyobonlar, gulzorlar barpo etildi.

(55 ta so'z).

Baxtli odam

Bir donishmanddan so'radilar:

-Qanday alomatlar odamning baxtli ekanidan dalolat beradi?

Donishmand aytdi:

-Halol mehnat, saxiylik, g'ayrat, ochiq yuzlilik va shirin so'zlilik baxtli odam alomatlaridir.

Yana undan so'radilar:

-Chakki yo`lda yurgan tarbiyasiz farzand nimaga o`xshaydi?

Donishmand aytdi:

-Bunday farzand ortiqcha o`sgan barmoqqa o`xshaydi. Uni kesib tashlamoqchi bo`lsang, og`riydi, o`z joyida qoldirsang, bedavo bo`lib turaveradi. (**53 ta so`z, “Donishmandlar odob-axloq to`g`risida” kitobidan**).

Non- imon

Non- tiriklik va hayot manbaidir. Turmushimiz go`zalligi, yurtimiz obodligi, xalqimiz quvonchi, dasturxonimizning oliy ne`mati- non bilandir. Shuning uchun ham dunyodagi barcha insonlarning nonga bo`lgan hurmati, e`tiqodi benihoya cheksiz.

Non mahsulotlarini tejash, uni isrof qilmaslik xususida fikr yuritish lozim bo`ladi. Nonni isrof qiluvchi shaxslarga nisbatan har bir kishining nafrati oshadi. Nonni tejash uchun har bir kishi harakat qilmog`i ham qarz, ham farzdir. (**61 ta so`z**).

7-SINF UCHUN DIKTANT MATNI

Beminnat do'st

E'tibor berganmisiz-yo'qmi, bilmadim-ku, sizning sadoqatda tengsiz do'stingiz bor. Qachon xohlasangiz siz bilan hamsuhbat bo'ladi. Shod paytingizda quvonchingizga quvonch qo'shadi. G'amgin pallada dardingizni oladi. Bilmaganingizni o'rgatadi. Adashsangiz, to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Yaqin kishilaringiz burilib ketganida ham u sizni tark etmaydi. Xizmati uchun hech nima tama qilmaydi. Yillab unutib, tashlab qo'ysangiz indamaydi. Hatto uloqtirib yuborsangiz ham arazlamaydi. Tag'in chorlasangiz, yetib kelib, xizmatigingizni qilaveradi...

...Bu do'stning nomi — kitob! **(65 ta so'z , O'tkir Hoshimov).**

Ona yer

Tabiatning ajoyib sovg'asi Ona yerimizdir. Yer barcha boyliklarning onasi hisoblanadi.

Nima uchun Ona-Yer deymiz?

Shuning uchunki, dunyoga keliboq uning havovsi bilan nafas olamiz. Birinchi qadamni uning bag'rida qo'yamiz. U sizni kiyintiradi, ardoqlaydi. Ona qo'ynida qanday yayrab-yashnasangiz, zaminda ham o'shanday o'sib, voyaga yetasiz. Onangiz sut, otangiz tuz bersa, Ona Yer non beradi, obihayot beradi... Shuning uchun yerni eng aziz inson - Ona nomi bilan bog'lab aytiladi. **(65 so'z).**

Vatan

“Vatan” so'zini toq aytmanlar hech qachon. “Bizning Vatanimiz” ham deya ko'rmanglar. “Mening Vatanim” deb aytinglar. Aytayotganda har bir tovush yuragingizdan uzilib tushsin!

Vatan—bu sizga ota-bobolaringizdan yodgor qolgan yer.

Vatan—bu sizning ota-bobolaringizning aynan o'zi.

Chunki ular ming, million yillar quvonch-tashvishlari bilan shu yerga qo'shilib ketganlar...

Demak, siz, aziz bolajonlar,”Bu Vatan meniki”, deb ishonib yashashlaringiz lozim. Ishonch sizlarga kuch beradi. Ana shu kuch sizlarni mustaqil qiladi. **(66 ta so'z, Qutlibeka Rahimboyeva).**

Kitob

Kitob – inson ma'naviy dunyosining boyishi, fikrlash doirasining kengayishiga katta yordam beradi. Shuning uchun kitobni doimo do'st tutish kerak. Undan ko'p narsalarni o'rganishga harakat qilish lozim.

Ko'p kitob o'qigan bola ko'p narsalarni o'rganadi. Vataniga xizmat qilishga, yaxshi insonlar qatoridan o'rin olishga harakat qiladi.

Kutubxona ham bilim manbai hisoblanadi. Kutubxonaga tez-tez boradigan bola, albatta, ko'p narsalarni biladi. Chunki, kitoblar insonning ilmi, bilim bo'lishiga yordam beradi. **(64 ta so'z).**

Ehtiyotkorlik haqida

Ehtiyotkorlik o'zlikni himoya etmoq deganidir. Kundalik hayotda inson turli hodisalarga ro'para keladi. Ularning domiga tushib qolmaslik uchun ehtiyotkorlik zarurdir. Chunonchi, yomon odatlarni o'rganmaslik, axloqi buzuk kishilardan yiroq yurish, sog'likka zarar keltiradigan taom yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilmaslik, chekmaslik, tilni tiyish, kattalar maslahatiga quloq tutish, yaxshi odamlar suhbatidan bahra olish, yaxshi- yomonning farqiga borish, ilm o'rganish, sport bilan shug'ullanish ehtiyotkorlik manbaidir. O'zlikni anglab, ehtiyotkor bo'ling.

(64 ta so'z, "Nursafardiyya- tafakkur tarbiyasi" kitobidan).

Ko'pkari

Ko'pkari uloq- o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlarining barchasi uchun birday qadr don. Ko'pkari – bu chavandozlar bahsi. Otabobolarimiz go'daklikdan bolalik fasliga kirgan farzandlarining qo'lini halollash, bo'y yetgan qizlarini uzatish, er yetgan o'g'illarini uylantirish to'ylarida xalqqa osh berib, so'nggida ko'pkari bahsi tomoshalarini ko'rsatishgan.

Ko'pkari chopish- bu chavandozlik ot ustida ommaviy musobaqa shartlarini bajarish, g'olib chiqish uchun olib boradigan kurashi, jangidir. Ko'pkarining boshqa nomi uloq ham deyiladi.

(65 ta so'z, M. Sattor "O'zbek udumlari" kitobidan).

Kurash

Kurash- qadimiy va erkin kurash turlariga bo'linadi. Bu odatning tarixi xalqimiz tarixi qadar uzundir. Kurash bizning xalqimiz paydo bo'lib, taraqqiyot yo'liga kirganidan buyon tarkib topib, rivojlanib, takomillashib bordi. Milliy kurashni biz hozirgi kunda sport turi sifatida qayd etamiz. Aslida esa bu odat xalq hayotining juda muhim tarmog'i bo'lib, uning taqdiri- a'molini belgilagan.

Qadim davrlarda nafaqat erkaklar, turkiy xalqlar tarixida xotin-qizlar ham kurash tushishgan.

(64 ta soʻz, M. Sattor “Oʻzbek udumlari” kitobidan).

Hashar

Hashar- Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlarimizdan biri boʻlib, qadimdan oʻzbek xalqi hayotida muhim oʻrin tutib kelgan. Hashar bu koʻpchilikning bir maqsadda birgalashib harakat qilishidir.

Qadim zamonlarda ota-bobolar qishloqlarda, yozloqlarda xoʻjalik ishlarini koʻp hollarda hashar yoʻli bilan bitirib olishgan.

Hasharning oʻziga xos bosh xususiyati shundan iboratki, u beminnat, bepul, betaʼma bajariladi. Hashar ishi koʻpchilik tomonidan tekin ado qilinadi.

(63 ta soʻz, M. Sattor “Oʻzbek udumlari” kitobidan)

Dasturxon

Inson paydo boʻlib, taom isteʼmol qila boshlabdiki, dasturxon bor. Dasturxon aziz, muqaddas, ruzq-roʻz manbai va ramzi sifatida koʻzga surtilgan. Dasturxon odobi, taom emak qoida- qonunlari ham xalqimizda azaldan mavjud. Uyingizda boʻlsin, mehmonda boʻlsin, kuniga uch-toʻrt bor dasturxon yoziladi. Unga non-choy, qand-qurs, hoʻl va quruq meva qoʻyiladi. Dasturxon- taomi bilan ulugʻ.

Dasturxon ustiga odatda, birinchi non qoʻyiladi. Oʻzbeklar tandir nonni koʻproq isteʼmol qilishadi, u dasturxonga juft qoʻyiladi.

(70 ta soʻz, M. Sattor “Oʻzbek udumlari” kitobidan)

Inson quvvatlari

Odamzod ibtidosidan boʻladigan quvvatlar soʻzlash quvvati, tanlash quvvati, xayol quvvati, sezish quvvatlaridir. Bulardan soʻzlash quvvati shunday quvvatki uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va goʻzal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur boʻlgan –boʻlmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli yoki foydali narsani, lazzeatli va achchiq narsalarni fahmlaydi.

Natijada nafrat va muhabbat, do'stlik va dushmanlik, g'azab va rozilik kabi his-tuyg'uga oid holatlar paydo bo'ladi.
(69 ta so'z)

Paronimlar

Abzal- afzal, adib- adim, aql- adil, alo-a'lo, amr-amir, ariq- oriq, asl-asil, bayon- bayan, bal-ball, barmoq-barmoq, ganj-ganch, davo-da'vo, daha-daho, devon- divan, diplomat- diplomant, dub-dup, jodi-jodu, ilk-ilik, lahm-lahim, ora-oro, sada-sado, sayd-sayid, sirat- sur'at, surgin- surgun, tambur-tanbur, tana-ta'na, uzik-uzuk, ulish- ulush, xol-hol, sher-she'r, shox-shoh, shuba-shu'ba, yuvindi- yuvundi, yagana-yagona, qala- qa'la, qiymat- qimmat, qism- qisim, qolib-qolip, qura-qur'a, qurt-qurut. (**"Paronim so'zlari lug'ati"** kitobidan).

So'z sehri

So'zlar hayoti murakkab, ularga sehr yashiringan. So'zlar ham o'z xalqi bilan birga umr kechiradi, xalq quvonsa, quvonadi, kuyunsa kuyunadi.

Kishilar o'zgalarni o'ylab buloqlarning bekilgan ko'zlarini ochadilar, avlodlari uchun daraxtlar ekadilar. Bundan keyingi avlod buloq suvidan, daraxt mevalaridan bahramand bo'ladi. Ota-bobolarimiz qoldirgan so'zlar ana shu buloqlar va daraxtlardir.

So'zlar biz uchun asrlar sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir.

(63 ta so'z, B.To'ychiboyev).

Kasb

Kasb inson uchun juda zarur faoliyat. Kim qanday kasb tanlasa, unga mehr qo'yishi kerak. O'z kasbini yaxshi bilgan kishining ishi unumli bo'ladi. Ota-ona kasbini egallash yanada yaxshi. Chunki siz ota-onangiz nimalar bilan shug'ullanishini yoshligingizdan ko'rib, o'rganib borasiz. Katta bo'lgach, shu kasbda ishlasangiz, sizning ustozingiz ota-onangiz bo'ladi.

Har kasbning o'z mohiyati, qiziqarli tomonlari bor. Kasb-hunar inson umrini bezaydi, baxtli, saodatli qiladi. **(64 ta so'z).**

Tuproq – Vatan

Tuproq-insonning tugʻilib oʻsgan joyi, tuproq - Vatan. Tuproq necha yuz yillardan buyon ne-ne ulugʻ farzandlarni quchogʻiga bosib kelayotgan ona zamin. Shuning uchun biz uni eʼzozlab “ona tuproq” deymiz. U olis ajdodlarga onalik qilgan. Ota-bobolarimizning onasi boʻlgan. U bizning ham onamiz, kelajak avlodning ham onasi boʻlajak.

Demak, hamma narsa ona tuproqni qadrlashdan boshlanadi. Oʻz tarixini ona yurtidan- ona tuproqdan qidirgan insongina haqiqiy inson boʻla oladi.

(65 ta soʻz, A.Nabiyev).

Yozgi taʼtil

Yozgi taʼtilda men tejamkorlik haqida koʻp oʻqidim. Masalan, kitob oʻqiganda butun uyni yoritadigan katta qandildan koʻra faqat oʻqib oʻtirgan joyni yoritadigan stol lampasidan foydalangan maʼqul ekan. Bu ham qulay, ham arzon. Chunki, 5 ta 60 vattlik lampochkadan iborat qandilga bitta 40 vattlik lampochkadan iborat stol lampasiga qaraganda 7, 5 barobar koʻp elektr quvvati ketar ekan. Stol lampasi oʻqilayotgan kitobga yaqin joylashgani uchun koʻproq nur berar ekan. **(65 ta soʻz, “Tong yulduzi” gazetasidan).**

Mosh haqida

Mosh asosan Oʻzbekiston pazandachiligiga xos, oqsilga boy (diametrik bir santimetrga yetmaydigan mayda) dukkakli ekinlar qatoriga kiradi. Shuning uchun ham moshdan tayyorlangan turli taomlar nihoyatda toʻyimli boʻlib, oʻzbek oilalari dasturxonidan katta oʻrin olgan.

Bu oʻsimlikdan tayyorlangan moshxoʻrda, moshqovoq, moshugra kabi suyuq taomlar va moshkichri deb nomlanuvchi quyuq taom koʻp oilalarda sevib tanovul qilinadi. Ayniqsa, jazirama yoz kunlarida kunduzlari qatiq bilan tanovul qilingan sovutilgan moshxoʻrda va moshugra kishiga huzur baxsh etadi. **(69 ta soʻz, “Oʻzbek milliy taomlari” kitobidan).**

Donolar bisotidan

Agar sening soʻzlagan nutqingdan foydali bir narsaning hidi kelib turmasa, bunday soʻzni aytmaganing yaxshi.

Begonalar orasida kishiga nasihat qila koʻrma, chunki, bunday nasihat taʼnadir. Agar bir kishi qingʻirlikka odatlanib qolgan boʻlsa, uni

to'g'ri yo'lga boshlay ko'rma, chunki egri daraxtni chopib tashlamaguncha to'g'ri bo'lmaydi.

Kishilarning yaxshi va yomon xislatlarini ko'zdan kechirib yur, ularning foydali va zararli ishlarining natijalarini kuzatib bor, undan keyin o'z manfaatingni talab qil. **(65 ta so'z, "Qobusnoma" dan).**

Do'stlik haqida

Do'stlik, o'rtoqlik, birodarlik fazilatleri asosan maktab davrida shakllanadi. Bolalar bir sinfda o'qish jarayonida birga o'qish va birga mehnat qilishga o'rganadilar. Darslarni o'zlashtirishga qiynaladigan bolalarga a'lochi do'stlari yaqindan ko'mak beradilar. Do'stining yutuqlaridan xursand bo'ladigan, kamchiligini tuzatishga ko'maklashadigan insonlarga chinakam do'st hisoblanadi. Do'st tutinish insonlar uchun eng yaxshi fazilatdir. Kimki kelajagi porloq va istiqbolli bo'lishni istasa, do'st va o'rtoqlar orttirishi, do'stlikni qadrlashi kerak. Do'stlikning qudrati hamma narsadan ustun. **(66 ta so'z "Bolalar ensiklopediyasi"dan).**

Forobiy hikmatlari

Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi.

Har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odobli bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyonat, makr va xiyladan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, barcha qonun-qoidalarini bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to'g'risida bilimni egallasin.

Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham, odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.

Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergan xalq- fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo'ladi. (**“Fozil odamlar shahri” kitobidan**).

Aqlli odam

Bir donishmanddan so'radilar:

-Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima-yu, eng yomon narsa nima?

Donishmand javob berdi:

-Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa go'zal axloq, tarbiya, sa'y-g'ayrat bo'lib, shu go'zal xislatlar bilan nom chiqarishdir. O'limdan ham battar yomon narsa esa tarbiyasizlik va yalqovlik bilan shuhrat qozonishdir.

Yana so'radilar:

-Eng aqlli odam kim?

-Ko'p narsani bilib, kam so'zlagan, o'z bilimiga mag'rur bo'lib, bilimdonlik qilmagan odam aqlli hisoblanadi. (**70 ta so'z, “Donishmandlar odob-axloq to'g'risida” kitobidan**).

Iboralar

Alamini olmoq, arpasini kim xom o'ribdi, baloga qolmoq, belni bog'lamoq, boshi ko'kka yetdi, burni ko'tarilgan, gapi bir joydan chiqdi, gah desa qo'lga qo'nadi, do'ppisini osmonga otmoq, yog' tushsa yalagudek, joni halqumiga keldi, ilonning yog'ini yalagan, kalavaning uchini topdi, kapalagi uchdi, ko'zi to'rt bo'ldi, ko'kka ko'tarmoq, lafzi halol, lom-mim demadi, mazasi qochdi, misi chiqdi, mum tishlab qoldi, oyog'ini qo'lga olib keldi, oralaridan qil o'tmaydi, og'zi qulog'iga yetdi, oq-qorani tanidi, terisiga sig'may ketdi, tili bir qarich, tilidan bol tomadi, tilining uchida, tirnoq ostidan kir qidirmoq, tishining kavagida saqlamoq, toqatlari toq bo'ldi, xo'rliqi keldi, chehrasi ochildi, esi chiqib ketdi, yulduzni benarvon uradi, qo'y og'zidan cho'p olmagan, qo'l kaltalik qildi, hafsalasi pir bo'ldi.

8-SINF UCHUN DIKTANT MATNI

Bahor keldi

Nihoyat... Qishning zax kunjaklarini, rutubatli kunlarini ortga surib bahor keldi. Olamning bahori, yurtning bahori, millatning bahori, qalbning bahori va yana... Ayolning bahori. Dunyo bir entikdi, ko'ksini to'ldirib nafas oldi. Fevralning boshlaridanoq oppoq qor isidan bahorni tuygan bodom gullari chamandek gullab yubordi.

Inson nega mudom bahorga intizor? Ahli olam nega uni otonasini, yorini, farzandini, do'stini kutayotgandek kutadi. Nega bir nafas samoda charx urayotgan qoraqosh qaldirg'ochlarga, bo'tana suvlarga aylangisi, kurtaklar kabi bo'rtgisi keladi. **(72 ta so'z, "Sharq yulduzi" jurnalidan).**

Navro'z

Navro'z Sharq xalqlari orasida bir necha ming yillardan buyon yashab kelmoqda. Uzoq qishdan so'ng ko'kda quyoshning yuz ko'rsatishishi, qirda maysa-giyohlarning nish urib chiqishi xalqimiz uchun haqiqiy shodiyonaga aylangan. Nega deganda, o'tgan yilgi yig'ilgan g'alla ham, oziq-ovqatlar ham sob bo'lay degan, ilikuzdi paytlarda yana Ona tabiatning o'zi mehr-muruvvat ko'rsatib, yorug' kunlardan darak bergan. Shu kunlargacha eson-omon yetib kelishgan qariyalarning ham tomirlarida qaytadan g'ayrat jo'sh urgan.

Nav- yangi, ro'z-kun; ya'ni yangi kun deb atalishi ham bejiz emas.
(80 ta so'z, M. Sattor "O'zbek udumlari" kitobidan).

Qo'noq

Qo'noq so'zi turkiy xalqlarda mehmon ma'nosini berib, qo'noq tushush- mehmon qabul qilish odatiga rioya qilinadi. Qo'noq odati turli viloyatlarda 'qo'noq', "qo'nuq", "qo'shxona" tarzida ham aytilib kelinadi.

Bu udum ko'proq to'y va mehmondorchilik odatlari bilan hamkorlikda, birgalikda o'tkaziladi. Odatda shahar- qishloqlarda to'y bo'lganda, uzoq-yaqindan mehmonlar keladi. Ular ko'pchilik bo'lganligi tufayli "to'y ko'pchilik bilan" aqidasi riyoya qilgan xalqimiz barcha tashrif buyurgan kishilarni kutib-kuzatishadi. Bu o'rinda qishloqlarda to'y egasidan tashqari yana o'nlab xonadonlar mehmonlarga quchoq ochadi.

(75 ta so'z, M. Sattor "O'zbek udumlari" kitobidan).

Navro`z

Mustaqil O'zbekistonimizda xalqning qadimiy qadriyatlari tiklanganligi tufayli Navro`z bayrami keng nishonlana boshladi. Bu bayram mehr-muruvvat, do'stlik, totuvlik bayrami bo'lganligi sababli u baynalmilal bayrami hamdir. Navro`zni respublikamizda yashovchi barcha xalqlar nishonlaydi. Navro`z umumxalq bayrami bo'lganligi uchun hamma ko'ch va maydonlarni tozalab, daraxtlarni oqlab, shirin taomlar pishirib, unga tayyorgarlik ko'radi. Bu bayram mehr-muruvvat bayrami bo'lganligi uchun qariyalar, etib-esarlar va bemorlardan xabar olinadi, ularga sovg'alar beriladi. Navro`zda sho`x-shodon qo'shiq yangraydi, o'yin-kulgi va xursandchilik hukm suradi.

(77 ta so`z, "Ma'rifat" gazetasidan).

Tilini asragan dinini asraydi

Alloh taolo innsonlarga bergan son-sanoqsiz ne'matlar ichida tilning ahamiyati beqiyosdir. Til insonning jisman kichik, ammo mas'uliyat va vazifa jihatdan e'tiborga molik a'zosidir. Shuning uchun ham tilni faqat yaxshi, savobli so'zlarga ishlatish va yomon so'zlashga odatlanib qolishidan saqlash zarur.

Dinimizning tilga e'tibor berishga undashi, uni befoyda va gunoh so'zlashdan qaytarishining boisi shundaki, til qalbga yaqin yerda joylashgan. Shuningdek, til qalbning tarjimoni hisoblanadi. Qalb esa imon maskanidir. Demak, insonning imoni qanchalik baquvvat, qalbi qanchalik sof bo'lsa, uning tilidan faqat hikmatli, shirin so'zlar chiqadi.
(82 ta so`z, "Hidoyat" jurnalidan).

Oqilona maslahat

Evropalik bir odam uyi yonida chiroyli maysazor barpo qilibdi. U yerdagi maysalar qishin-yozin yam-yashil bo'lib turar ekan. Bir yili bahor kelishi bilan maysazordan qoqigullar o'sib chiqib, o'tloq sap-sariq gullarga to'libdi. Bir necha kundan keyin esa maysazor oppoq momoqaymoqlarga burkanibdi. Bu o'zgarish maysazor egasiga yoqmabdi. U qoqigullarni yulib tashlabdi, lekin ular yana o'sib chiqaveribdi. Maysazor egasi ulardan qutilish uchun o'zi bilgan hamma usullarni qo'llab ko'ribdi, ammo foydasi bo'lmabdi.

Xatga: "Sizga qoqigullarni sevib qolishni maslahat beramiz", deb yozilgan ekan.

(80 ta so`z, "Ma'rifat gulshani" gazetasidan).

Navro`z bayrami

Navro`z- xalqimizning katta bayrami. Bu bayram qadim-qadimdan beri nishonlanib kelinganidan, bolalik chog`larimizda bu bayramga katta tayyorgarlik ko`rardik. Hamma sandalni tark etib, hovli ichini tartibga solardi, tozalardi.

Bolalar ham yumushlarni bajarishda kattalarga yordam berardi. Kechqurunlari butun qishloq uzra xushbo`y ko`k somsa hidi taralardi.

Noz-ne]matlar tayyor bo`lgach, oila a`zolari dasturxon atrofiga yig`ilardi. Hech kim dasturxondan chetda qolmasligi kerak edi. Agar kimdir kelmasa, o`sha odam, irimga ko`ra, baxtsizlikka uchrashi mumkinligi tufayli, qayerda bo`lsa ham etib kelishi kerak edi. **(77 ta so`z, Yo`ldosh Muqimovdan).**

Hosil yig`im-terimida

Kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o`tgach, biz- bir guruh shaharlik talabalarni qishloqqa, dehqonlarga yordamga yuborishdi. Biz u yerlik dehqonlarga kuzgi hosilni yig`ishda yordam berdik. Biz asosan bodring va pomidor terdik. Bu sabzavotlar nozik bo`lgani uchun ularni mashinada terib bo`lmas ekan. Aqliy mehnatdan keyin bunday jismoniy ish bizga yoqib tushdi. Tonggi shabada, kuzgi oftobning mayin nurlari, tushki ovqat paytidagi hazil- mutoyibalar, tungi o`yin-kulgilar- bular hammasi ajoyib edi. Biz u yerda bir-birimiz bilan do`stlashib ham oldik. **(74 ta so`z).**

Ona mehri

Ona. Mehri quyoshlarga teng ona. O`z shafqati, niri bilan bolaga qalb bergan, sevgi baxsh etgan—ona! Uning inoyat qilgan yuragi va muhabbati eng avval, onaning o`ziga qaratilib, bola uni sevdi, ardoqladi.

Tunlari bedor: shirin uyqusini buzib, bolasiga halovat beradigan yoqimli allasi bilan ona farzandiga ruhiy lazzat bulog`ini ochadi. Bola she`riyat va qo`shiqqa umrbod maftun bo`ladi. Bolasini ko`zimning nuri, dilimning sururi, deydi. Uni yer-u ko`kka ishonmay, ko`proq uxlab qolsa, xavotirlanadi, qattiqroq yig`lasa, vahimaga tushadi. **(73 ta so`z).**

Qorli tog`

Yakshanba kuni sinfimiz o`quvchilari bilan birgalikda Chimyon tog`iga bordik. Kun sovuq edi. Qalin qor yog`gan. Tog` cho`qqisini oppoq qor va bulutlar qoplagan.

Tog` etagida bolalar va katta yoshdagi kishilar chana uchishardi. Ular biz bilan salomlashishdi. Yigit va qizlar tog` cho`qqisi tomon ketishdi.

Jamshid, Sarvar va Ravshan tog` manzaralarining rasmini chizishdi. Javlon va Salim qorbobo yasashdi. Qizlar esa ularga yordamlashdi. Biz maza qilib dam oldik. Safarimiz so`ngida hamma bolalar estalik uchun suratga tushishdi. (72 ta so`z).

Abu Rayhon Beruniy

O`zining ensiklopedik bilimi va qoldirgan nihoyatda boy ilmiy merosi bilan afsonaga aylangan buyuk ajdodlarimizdan yana biri Abu Rayhon Beruniydir.

U Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tug`ilgan.

Beruniy tomonidan yaratilgan asarlar astronomiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmokologiya, tarix, filologiya kabi nihoyatda turli-tuman fanlarga oiddir.

Beruniy hatto badiiy ijod bilan ham shug`illangan, she`rlar yozgan. U boshqa qit`alarda hayot borligini tekshirish bilan ham shug`ullangan bo`lib, uning bu sohadagi taxminlari ilmiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. (74 ta so`z).

Kuzgi hosil

O`lkamizda hosil yig`ib olish kuzda emas, balki yo`z faslining oxirlaridan boshlanadi. Bobodehqonlarimiz paxta va bug`doy terimi uchun tinmay harakat qilishlari lozim. Qurigan boshoqlarni erta tongdan kun qiziguncha olib chiqishi kerak. Paxtakorlarimiz ham dalalardagi paxtalarni yog`ingarchilik boshlanmasdan avval yig`ib olish uchun bor mehnatlarini ayamaydilar. O`z oldilariga qo`ygan maqsadlarini bajarishlari kerak. Nafaqat bug`doy va paxta terimi, balki sholi, poliz ekinlari, bog`lardagi meva va sabzavot ekinlaridan ham mo`l hosil olinadi.

Yog`ingarchilik boshlanmasdan avval barcha hosilni yig`ib olishlari kerak.

(75 ta so`z).

Ma'naviyatimiz- boyligimiz

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish-O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib, jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. (75 ta so'z, "O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish" kitobidan).

Ma'naviyat chashmasi

Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi. Yer, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, bijdon, erkinlik- ma'naviyatning ma'nosi ana shunday juda keng. Inson uni Inson darajasiga ko'taradigan asoslarning asosini o'z aqli bilan tom ma'noda qamray olmaydi. Inson o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi. (80 ta so'z, "O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish" kitobidan).

Vatan

Vatan- keng va ko'p miqyosli tushuncha. Vatan octanadan boshlanadi. Vatan sen yashab kelayotgan, ulg'yayotgan uy, ota-onang, aka-uka, opa-singillaring, hovlidagi daraxtlar, har kuni non yopiladigan tandir. Vatan- katta-kichik to'yga keladigan, azada jamlanadigan, chollari guzarda gurunglashadigan, machitlaridan azon eshitiladigan qadrdon mahalla.

Vatan- paxta rejasi sal ilgariroq bajarilsa, boshing osmonga yetadigan viloyat. Vatan- tuprog'idan oltin unuvchi, tog'larining boshi ko'kka yetgan, bog'-bo'stonga to'la O'zbekiston.

Vatan- biz yashab turgan kurrai zamin. Besh barmoq bir bo'lsa musht bo'ladi. Kim g'araz va adovat bilan tajovuz qilsa, ta'zirini berishadi. (80 ta so'z).

Maqollar

- 1.Daraxt ildizi bilan kuchli,..... (Odam- do'stlari bilan).
- 2.Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam,.....(Odam- mehnati bilan).
- 3.Olim bo'lsang.....(olam seniki).
- 4.Vatani borning baxti bor.....(Mehnati borning-taxti).
- 5.Otangni quyosh bilsang,.....(onangni oy bil).
- 6.Do'sting ming bo'lsa ham oz,....(Dushmaning bir bo'lsa ham-ko'p).
- 7.Nonsiz yashab bo'lmas,....(gapni oshab bo'lmas).
- 8.Salomatlik.....(tuman boylik).
- 9.Hurmat qilsang.....(hurmat topasan).
- 10.Avval o'yla.....(keyin so'yla).
- 11.Til tig'dan.....(o'tkir).
- 12.Tilning yomoni.....(boshga balo).
- 13.Yaxshi so'z jon ozig'i,.....(yomon so'z bosh qozig'i).
- 14.Dangasaga ish buyursang,.....(senga aql o'rgatadi).
- 15.Ayрилganni ayiq yer,.....(Bo'linganni bo'ri yer).
- 16.O'n marta eshitgandan,....(bir marta ko'rgan afzal).
- 17.Kengashganga keng dunyo,...(Talashganga tor dunyo).
- 18.Mard bir marta o'lar,....(nomard yuz marta o'lar).
- 19.Izzat tilasang ko'p de,....(sihat tilasang kam de).
- 20.Bilagi zo'r birni yiqar,.....(bilimi zo'r mingni).
- 21.Vaqtning ketdi,....(baxting ketdi).
- 22.Otalar so'zi,....(aqlning ko'zi).
- 23.Kattaga hurmatda.....(kichikka izzatda).
- 24.Tili shirinling.....(do'sti ko'p).
- 25.Til beruvchi bo'lma.....(til oluvchi bo'l).
- 26.Tilingda bo'lsa boling,.....(kulib turar iqboling).
- 27.Tilinga ixtiyot bo'l,.....(tishing sinmasin).
- 28.Kam so'zla.....(ko'p tingla).
- 29.Mehnat-.....(mehnatning tagi rohat).
- 30.Bilimdan ortiq.....(boylik yo'q).
- 31.Ko'p o'qigan o'zadi,.....(o'qimagan to'zadi).
- 32.Eshik ochiq bo'lsa(ham so'rab kir).
- 33.Gap bilan shoshma.....(ish bilan shosh).
- 34.Bilim.....(xazina).

36.Xato qildingmi,.....(kulib qo'y).

37.O'zgalar aybini ko'rishga zo'rsan, lekin o'z aybingni(bilmaysan, ko'rsan).

9-SINF UCHUN DIKTANT MATNI

Yangi hovli

Oila-xonadon boshpana bilan tirik. Boshpanalik bo'lish esa hamma zamonlarda ham oson bo'lmagan. O'zbek xonadonlari azaldan serfarzand, katta ro'zg'or bo'lib kelishgan. Bo'y yetgan qizlar uzatilgan. Voyaga yetgan o'spirinlar uylantirilgan.

O'g'il bolaning yo'li boshqa. O'g'il tug'ilishi oilaning baxti, shon-shavkati sanalgan. Zuryod davomchisi, vatan egasi, himoyachisi, oila qo'rg'onining darg'asi. O'g'il tug'ilishi bilan tadbirkor otalar, bobolarning maslahati bilan tomorqa hovliga 100-200 ta terak ekishgan. Bu teraklar to bola ulg'ayib uylanadigan bo'lguncha yangi imoratga xomashyo sifatida voyaga yetgan.

Yangi uyga ko'chib kirishda bir qator urf-odatlar, hatto irimlarga o'zbek xalqi hamon amal qilib keladi.

(90 ta so'z, M. Sattor "O'zbek udumlari" kitobidan).

To'y

Siz karnay-surnaylar ovozi, nog'oraning taqa-tumini uzoqdan eshitgan zahotingizdayoq to'y bo'layapti, deya yugurasiz. Ha, to'yning belgisi, xabarchisi-karnay-surnay, nog'oralar va Siz. To'y o'z nomi bilan- yaqin do'st-yor, qarindosh-urug' diydoriga, shirin taomlarga, yaxshi kuy va qo'shiqqa, kurashu ko'pkari tomoshasiga, bayram shodiyonalariga, kulgi va quvonchga to'yishdir.

Bizning o'zbek xalqi O'rta Osiyo mintaqasidadi boshqa qardosh xalqlar singari juda qadim zamonlardan buyon to'y qilib, elga osh berib kelgan. To'ylar odatda, kichik bayramlardek o'tkazilgan. To'yning ham turlari ancha-muncha. Beshik to'yi, xatna- sunnat to'yi, nikoh to'yi, hovli to'yi, yosh sanalari bilan bog'liq to'ylar va hokazolar.

(94 ta so'z, M. Sattor "O'zbek udumlari" kitobidan).

Yaxshi niyat

Yaxshi niyat- yarim davlat, deydi xalqimiz. Tilak bildirish, yaxshi niyat, duoyu olqishlar- bu ham o'zbek xalqining eng qadimiy udumlaridan biridir. Inson hayotining barcha fasllarida, turli yoshlarda, turli munosabatlar bilan, turmushning barcha chorrahalarida bir- biriga tilak bildiradi, yaxshi niyat qiladi.

Bola tug'ilganda farzand, zuryod muborak bo'lsin qilinib, umriyu rizqi, ota-onasi, boboyu buvisi bilan bergan bo'lsin, deyiladi. Bu ixcham tilakning mazmunida katta hikmat bor. Bolaki tug'ilibdimi, avvalo uning umri uzun bo'lsin, rizqi nasibasi mo'l bo'lsin, ota-onasi tarbiya berib, oq

yuvib, oq tarab, uzoqqa mo'ljallangan tilaklar birgina shu ibora hikmatda o'z jamuljamini topgan.

(92 ta so'z, M. Sattor "O'zbek udumlari" kitobidan).

Farzand haqida

Farzand- avlod davomchisi. Ota-onaning farzandga tarbiyasi uning mehrida namoyon bo'ladi. Tarbiyali farzand oila sha'ni, jamiyat obpo'si, vatan himoyachisidir. Ota-ona farzandiga nima bersa, farzand ham shuni qaytaradi. Tarbiya ko'rgan farzand o'z hayotidan mamnun holda ota-onasiga mehr ko'rgazadi. Tarbiyasiz farzand ota-ona dardi, jamiyat zararkunandasi, vatanda vatansiz kimsadir.

Har bir farzandning burchi: ota-onaga mehribonlik, sodiqlik, oqibatlilik, doimo ularning xizmatlarida bo'lish, nasihatlariga amal qilib, hurmatlarini joyiga qo'yish, vatan oldida mardlik, matonat, qahramonlik, xalqiga hurmat, himoyasiga hamisha shay va sadoqat ila xizmat qilishdir. Iymonli farzand saodatli yo'lda sobitqadamdir.

(88 ta so'z, "Nursafardiyya- tafakkur tarbiyasi" kitobidan).

Do'st tanlash haqida

Do'st- ko'ngil malhami. Chin do'st boshga kulfat tushganda hamisha hoziru nazir. Do'st tanlashda kishi, avvalambor, o'zi tarbiya topgan bo'lib, tanlanadigan do'stga munosib bo'lmog'i lozim. Mabodo xulqingiz yomon bo'lsayu, yaxshi odamga havas qilib, u bilan do'st tutinmoqchi bo'lsangiz, tabiiyki, tanlaganingiz sizni rad etadi. Birinchi do'stlikni o'zingizdan boshlang. Ya'ni o'zingiz o'zingizga do'stsiz. Avvalo, aqlni charxlab, ruhiyatni poklang, odob-axloq qoidalariga, intizomga rioya eting. So'ngra sizning do'st tanlash vaqtingiz keladi. Siz tanlaydigan do'stni o'z xulqingizdan kelib chiqqan holda saralaysiz. Ya'ni do'stingizning ruhiyati pok bo'lib, u ham odob-axloq qoidalariga, intizomga rioya etuvchi bo'lishi kerak.

(91 so'z, "Nursafardiyya- tafakkur tarbiyasi" kitobidan).

Obod yurt istiqboli

Xalqimizda "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona", degan maqol bor. Shuning o'zidan ham ota-bobolarimiz farzandlarning jisman va ma'nan sog'lom bo'lishiga qanchalik e'tibor berganini bilsa bo'ladi. Xadisi shariflarda insonlarning yaxshilari go'zal xulqli va chiroyli muomalali kishilar ekani ta'kidlanadi. Bir o'rinda: "Hech bir ota-ona o'z farzandiga go'zal odobdan ko'ra yaxshi narsa qoldirmaydi", deyiladi (Imom Termiziy).

Farzand tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan yurt ravnaq topadi. Bugun mamlakatimizda yoshlarning ilm olib, hunar o'rganishi uchun

yaratilayotgan sharoitlar ham kelajagimizga qo'yilgan munosib qadamdir. Chunki ertangi kunimiz bilimli, salohiyatli farzandlarimizga bog'liq. (85 ta so'z, "Hidoyat" jurnalidan).

Qoraqalpog'iston

Qoraqalpog'iston- O'zbekistonning shimoliy-g'arbida joylashgan. Maydoni 166,6 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Qoraqalpog'istonda asosan qoraqalpoq va o'zbeklar, shuningdek, qozoq, turkman, rus, tatar, koreys va boshqa millat vakillari yashaydi.

Qoraqalpog'istonning barcha suv havzalaridan baliq ovlanadi, ularda baliq xo'jaliklari tashkil etilgan.

Qoraqalpog'istonda yuksak o'simliklarning 979 turi uchraydi. Hududi tropik foydali qazilmalardan gaz, gaz kondensati, neft, qurilish va qoplama toshlar, gips va ohaktosh, keramzit, sement, kon- ruda va kon-texnika xom ashyosi qazib olinadi. (84 ta so'z, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" dan).

Ikki dangasa

Bobom bir ertak aytib berdilar:

-Kunlardan bir kuni Hindistonning eng dangasa kishisini topmoqchi bo'lishibdi. Qidirib-qidirib ikki dangasani zo'rg'a topishibdi. Keyin ulardan qaysi biri ko'proq dangasaligini aniqlamoqchi bo'lishibdi. Ikkalasini bir kulbaga tezgina qamab, ustidan o't qo'yib yuborishibdi. So'ng ulardan qaysi biri birinchi yugurib chiqar ekan, deb kutib turishibdi. Kulbaga o't ketib, darhol hammayoq yona boshlaganda bir dangasa ikkinchisiga:

- Ko'zinga quyosh nuri qayerdan tushayapti? Kirganimizda uy ichi qorong'i edi, shekilli,-debdi.

-Shungayam o'zimni urintirib ko'zimni ochib o'tiramanmi? Quyosh nuri qayerdan tushgani baribir emasmi?-deb erinib ikkinchisi.

Dangasalikning oxiri voy, deb shuni aytisharkan. (91 ta so'z).

Qovun sayli

O'zbekistonda kuzda, qovun pishgan paytda qovun sayli o'tkaziladi. Bu tadbir qovun ekan mirishkor dehqonlar tomonidan tashkil etiladi. Sayilni tashkil etayotgan dehqonnikiga keladigan yor-u do'stlar hosil yig'ish va xazanak qilish uchun hasharga taklif etiladi. Sayilga taklif etilganlar uchun mezbon sho'rva va osh tayyorlaydi.

Sayilda ishtirok etayotganlar o`rtasida hosil yig`ish paytida “shirinkoma” (ba`zi joylarda “shirinaki”) o`yini tashkil etiladi. Bunda hamma bittadan qovun yoki tarvuz tanlab, kimniki shirin chiqishi bo`yicha musobaqa o`ynashadi. Musobaqada g`olib chiqqan kishi taqdirlanadi, yutqizgan esa boshqalar buyurgan xizmatni bajarishi kerak bo`ladi. **(82 ta so`z).**

Aysberg

“Aysberg” so`zi o`zbek tilida “Muz tog`i” degan ma`nosini anglatadi. Haqiqatan ham, aysberglar surilib kelib dengizga qulab tushgan muz tog`laridir. Muzlikning boshi ma`lum vaqtgacha dengiz ustida osilib turadi. Uni suv qalqishlari, dengiz oqimlari va shamollar o`yaveradi. Nihoyat, u bo`linib, shaloplab suvga qulaydi. Aysberg chayqalib, ulkan massasining katta qismini suv ostiga yashirgan holda shamol va oqim kuchiga bo`ysunib, uzoq safarga yo`l oladi. Yo`lda asta-sekin eriydi va shu tufayli u ba`zan to`ntariladi. Uzunligi bir- ikki kilometr, kengligi yarim kilometrli mayda va uzunligi bir necha o`n kilometr, balandligi esa yuz metrdan oshadigan aysberglardir. **(90 ta so`z, “U kim, bu nima” bolalar ensiklopediyasidan).**

Buyuk ipak yo`li

Buyuk ipak yo`li qadim zamonlardayoq Osiyo qit`asini ko`ndalangiga kesib o`tib, ulkan Sharqni G`arb mamlakatlari bilan bog`lagan. Natijada qit`alararo bu karvon yo`li bo`ylab yashagan xalqlarning o`zaro muloqot va tijoratlari kengayib, iqtisodiy va madaniy hayoti yuksaladi. Bu savdo yo`li uzra yangi-yangi sharahlar paydo bo`ldi, shaharlarda esa hunarmandchilik unib-o`sdi. Ilk o`rta asrlarda xalqaro savdo-sotiqni olib boruvchi va uni boshqaruvchi savdogarlar ahli shuhrat topdi.

Afsuski, qadimda turli mamlakatlarni bog`lagan ko`hna savdo yo`lida bino qilingan imorat va inshootlarning ko`pi asrlar davomida vayron bo`lib, bizgacha ulardan yassi tepalar shaklidagi arxeologik yodgorliklarga yetib kelgan. **( 90 ta so`z).**

Muallim siymosi

Muallim- ustoz siymosini ko`z oldimizda yorqin jonlantiruvchi faqat maqollargina bo`lib qolmay, minglab she`rlar, qo`shiqlar, dostonlaru hikoya va romanlar ham ularning fidoyiligini, olijanob mehnatini madh etadi. Aslida bular ham kamlik qiladi. Negaki, boshqa hamma kasblar biron-bir narsani yaratadi, sayqal beradi, bir holatdan ikkinchi holatga o`tkazib, go`zallik kashf etadi, xullas, turmushimiz uchun yaroqli narsani muhayyo qiladi. Muallimning vazifasi boshqacharoq: u inson yaratadi! Muallim dunyoni o`z aqli, mehnati bilan harakatga keltiruvchi insonni tarbiyalab, voyaga yetkazadi. Yana shuni ham ochiq aytaylik: o`qituvchining ishi eng toza, eng savobli ish hisoblanadi. (86 ta so`z).

Ona qirg`ovul

Sirdaryo qirg`oqlaridagi kengliklarda qirg`ovul ko`p. Faqat qirg`ovul emas, yovvoyi o`rdaklar, loyhuraklar, turnalar, to`rg`aylar va turli- tuman boshqa qushlar ham ko`p uchraydi. Ular bu yerda yashaydilar, bola qo`yadilar, dalalar ustidan qanot qoqib uchadilar. Bahorda Nilu muborakdan uchgan qaldirg`ochlar, kuzda shimoldan kelayotgan g`ozu turnalar ham bizning Sirdaryomiz bo`yida qo`nib, hordiq chiqarib yana uzoq uchadilar.

Saraton quyoshi yerlarni yondirgudek bo`lib qizdirardi. Qoraqumda havo shunday isib ketardiki, hatto nafas olish ham qiyinlashardi. Bunday paytlarda faqat odam emas, jonivorlar, parrandalar ham o`zlarini soyaga olib, halloslab, kechki salqin tushishini kutib yotardilar. (85 ta so`z).

Ahmad Yassaviy

Hikmatlar

Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdin o`taro,
Inonmagil molingga, bir kun qo`ldan ketaro,
Ota-ona, qarindosh qayon ketti, fikr qil,
To`rt oyog`lig` cho`bin ot bir kun senga yetaro.
Dunyo uchun g`am yema, Haqdin o`zgani dema,
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.

Ahli ayol, qarindosh- hech kim bo`lmaydur yo`ldosh,
Mardona bo`l, g`arib bosh, umring yeldek o`taro.
Qul Xoja Ahmad, toat qil, umring bilmam necha yil,
Asling bilsang obu gil, yana gilga ketaro!

Salomatlikni asrash

Odam bolasining eng zo`r boyligi o`zining tani- jonining salomat bo`lmog`idir. Odam bolasi ushbu zo`r boylikning qadrini ko`p vaqt bilmay o`tkazadir. Tani salomat bo`lmagan odam butun dunyoga hokim bo`lsa-da , ko`ziga ko`rinmas, ozgina ham rohat ko`rmas. Eng ko`p kasalliklar nimadan kelib chiqishi ma`lumdir. Shularni bilib, o`zini ehtiyot qiluvchilar ko`p vaqt salomat kun o`tkazadilar. Shuning uchun kasalliklarga sabab bo`la turgan narsalardan saqlanmoq lozim.

Tan qizigan holda sovuq suv ichish, terlagan holda sovuq havoga chiqish, ko`mir isi bor yerda o`tirish yog`li narsalar va go`shtni ko`p yeyish , zararli ichimliklarni iste`mol qilish kasallik keltiruvchi omillar ekanligi ma`lum. **( 91 ta so`z, Rizouddin ibn Faxruddin).**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdiyev B. Yozma nutqni o'rtirish yuzasidan praktikum. Toshkent, 1980 y.
2. Dolimov S. Ta'limiy bayon va insho. Toshkent, 1968 y.
3. Zunnunov H., Turdiyev B. Bayonlar to'plami. Toshkent, 1978 y.
4. Madayev O. Inso qanday yoziladi? Toshkent, 1991 y.
5. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. Toshkent, Fan, 1993 y.
6. Niyazmetova T. va boshqalar "Bayonlar to'plami", Toshkent, 1993 y.
7. Ziyodullayeva, M., Mamadiyeva M. "Diktantlar to'plami", Toshkent, 2012 y.
8. Abduraimova M., Ziyodullaeyva G. "Bayonlar to'plami" Toshkent, 2012 y.

Mundarija

1. Soʻz boshi -----	3-bet.
2. Diktant va uning turlari -----	4-bet.
3. 5-sinf uchun diktantlar matni -----	6-bet.
4. 6-sinf uchun diktantlar matni -----	11-bet.
5. 7-sinf uchun diktantlar matni -----	16-bet.
6. 8-sinf uchun diktantlar matni -----	23-bet.
7. 9-sinf uchun diktantlar matni -----	30-bet.
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati-----	38-bet

